



PEDAGOGLARNING KASBIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIMGA INTEGRATSION YONDASHUVNING AHAMIYATI

Choriyeva Z.T.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Boynazarova M.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Tayanch so'zlar: ta'lim jarayoni, kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, integratsiya, integrativ yondashuv.

Ключевые слова: образовательный процесс, компетентность, компетентность, профессиональная компетентность, интеграция, интегративный подход.

Key words: educational process, competence, competence, professional competence, integration, integrative approach.

Hozirgi tez rivojlanib borayotgan zamonda yurtimizda turli sohalarda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda. Ta'lim sohasi ham mustasno emas, albatta. Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish va ta'lim jarayonini yanada rivojlantirish maqsadida bilimli, yetuk mutaxasis kadrlarni tayyorlashga katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, mehnat bozorida raqobatdosh munosabatlarga dosh bera olish bozor munosabatlarida pedagoglardan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish va kasbiy sifatlarni rivojlantirib borish, ta'lim jarayonida kreativ va integratsion yondashuvni amalda qo'llay olish kabi xususiyatlarni talab qiladi. Kompetentlik va integratsiya kabi tushunchalar yurtimizga kirib kelganiga uzoq yillar bo'lmagan bo'lsa-da, ta'lim jarayoniga tez sur'atlarda singib ketishga ulgurdi. Xususan, kompetentlik kutilmagan holatlar, noan'anaviy vaziyatlarda mutaxasislarning o'zini qanday tutishi, ular bilan muloqot olib borishi va munosabatga kirishishi bo'lsa, integratsiya shaxsning integrativ xususiyatlarini, ya'ni egallagan bilimi, ko'nikma, malaka, amaliy tajriba, qobiliyat kabi shaxsiy sifatlarini ifodalaydi. Integrativ yondashuv esa shaxsni kasbiy faoliyatga tayyorlashga va uni kuchaytirishga zamin yaratadi.



Yurtimizda tub islohotlar olib borilishi mobaynida jamiyatda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy rivojlanish yo‘li tanlab olindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli qarorida belgilangan vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi.[1]. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta‘lim sohasidagi islohotlar davlat prinsiplari asosida olib borilishi, bo‘lajak pedagoglarni shakllantirish vazifalari ko‘zda tutilgan bo‘lib, oliy ta‘lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta‘minlash asosida ta‘lim sifatini yaxshilash, raqobatdosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish va shu kabi bir qancha vazifalar ilgari surilgan.

Asosiy qism. Bugungi kun zamon talabi bilan pedagoglar nazariyani chuqur bilish va uni qiziqarli qilib yetkaza olish, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lish, har bir shaxsni hurmat qilish, nutq ravonligi va o‘z ustida ishlash kabi kasbiy sifatarni o‘zida mujassamlashtirish bilan birga kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda integratsiyaga bo‘lgan yondashuv, integrativ dars yaratish jarayoni haqida tushunchalarga ega bo‘lishi va uni amalda qo‘llay olishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish va uni rivojlantirishdagi muammolarni tahlil qilish kompetentlik tushunchasining mohiyatini aniqlashtirishga ehtiyoj tug‘iladi. Kompetentlik atamasi (lotincha “competens” – qobiliyatli) kompetensiyalarga ega, ma‘lum sohaga oid bilimdon shaxs degan ma‘noni anglatadi. Shu bilan birga “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari bir–biri bilan chambarchas bog‘liqligi sababli biroz chalkashliklar yuzaga keladi. Bu borada olib borilgan izlanishlarga qaraydigan bo‘lsak bir qancha olimlar bu ikki tushunchani bir-biridan farqlab berishgan.

D. I. Ushakov: “Kompetentlik - xabardorlik, avtoritetlik; kompetentsiya - shaxsning bilimi, tajribasi» deb ta‘kidlaydi[2].

O. M. Mutovkinaning fikriga ko‘ra: “«kompetensiya» “kompetentlik”dan olingan ikkilamchi tushunchadir va insonning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini qo‘llash doirasini bildiradi, «kompetentlik» esa ularning ichki umumiyligini aks ettiradi” deya aytib o‘tilgan.

I. A. Zimnyaya kompetensiya haqida shunday fikrlaydi: «ichki salohiyat, yashirin psixologik hosilalar: bilim, g‘oyalar, harakatlar, munosabatlar yig‘indisi»

A.V.Xutorskiy kompetensiya to'g'risida "ta'limga tayyorgarlik, mahorat, shaxsiy sifatlar yig'indisi" deb aytadi [4].

S.Ya. Batishev va B.S. Gershunskiy kasbiy kompetentlik haqida fikr bildirib o'tgan bo'lib, uni "savodxonlik kasbiy kompetentlik – madaniyat - mentalitet" umumiy bo'g'inidagi ta'lim natijasi sifatida qaraydi.

N. A. Muslimov bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentliklarini shakllantirishda tayanch, umumiy va maxsus kompetentlik darajalarini shakllantirish muhimligini aniqlagan [5].

Bundan ko'rinadiki, kasbiy kompetentlik pedagogdan nazariy bilimlarni egallash, ko'nikma, malakaga ega bo'lish bilan birga integrativ bilimlarni o'zlashtirish, ushbu bilimlarni doimiy ravishda boyitib borishni, yangi axborotlar izlab topishni va faoliyat davomida uni qo'llay bilishni ham talab qilar ekan.

Integrativ bilimlar va harakatlar asosida integrativ dars tashkillashtirish, integrativ dasturlar tuzish va ta'lim jarayoniga integratsion holatda yondashgan holatda bularning barchasini amalga oshirish esa hozirgi zamon pedagogik muammolaridan biridir.

Bu borada olib borilgan izlanishlarga qaraydigan bo'lsak, integratsiyaning nazariy, falsafiy, psixologik-pedagogik, metodik asoslari Ye.N.Kabanova-Meller, Yu.A.Samarina, S.L.Rubinshteyn, S.E.Kamenskiy, I.D.Zverev, V.N.Maksimova, G.Spenser, M.G.CHEpikov, N.K.CHapaev, R.G.Safarova, R.SH.Axlidinov UD.Musaev, I.V.Makuxina, P.Musaev, M.G.Nishonbaeva, M.X.Lutfullaev, M.Jumaniyozova kabi olimlarning ishlarida yoritilgan.

D.N.Zokirovaning ishlarida kasb ta'limi o'qituvchilarining salohiyatini oshirish, ijodkorlik, tadborkorlik kabi sifatlarni shakllantirish muammolari o'rganib chiqilgan va bu muammolarga tizimli yondashish to'g'risida aytib o'tilgan.

Bilamizki, ilmiylik, politexnizm, kasbiy yo'nalganlik, muntazamlik, tizimlilik, uzviylik, tushunarlilik, ko'rsatmalilik, tabaqalashtirish kabi bir qancha didaktik tamoyillar mavjud bo'lib, integrativ yondashuv aynan mana shu didaktik tamoyillar bilan uyg'undur. Ya'ni, integrativ yondashuv bizga yuqorida sanab o'tilgan tamoyillarni yaxlit bir tizim sifatida tasavvur qilishga yordam beradi.

Zamon talabiga mos pedagoglarni shakllantirish uchun ta'limga integratsion yondashuv esa bo'lajak o'qituvchilarda quyidagicha sifatlarga ega bo'lishiga sabab bo'ladi:

- o'rganilayotgan jarayonni tahlil qilish orqali umumiy maqsadni aniqlab olish;



- fanlararo aloqadorlikni to‘la o‘zlashtirgan holatda uni amalda qo‘llay olish;
- o‘qitish jarayonida o‘quv materiallari orasidagi umumiy yaxlitlikni topa bilish va o‘zaro aloqadorlikni aniqlay olish;
- fanlarni integratsiyalash uchun qo‘yiladigan asosiy g‘oyani aniqlash.

Xulosa. Pedagoglarni kasbiy sifatlarini shakllantirishga ko‘p omillar ta‘sir qilishi mumkin. Lekin bu borada ta‘limga integratsion yondashuvning ahamiyati anchagina kattadir va bu bugungi kun uchun dolzarbligicha qolmoqda. Ayniqsa, o‘quv jarayonini integratsiyalash asosida umumiy bilimlarni tarkib toptirish pedagoglar uchun muhim o‘ringa egadir.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi” 8.10.2019 yil, PF-5847.
2. Зеер Э. Ф. Психология профессий : учеб. пособие для студентов вузов / Э. Ф. Зеер. - М. : Акад. проект ; Фонд «Мир», 2005. - 336 с.
3. Лернер, И.Я. Дидактические основы методов обучения : монография / И.Я. Лернер. – Москва : Педагогика, 1981. – 186 с.
4. Хуторской, А.В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения / А.В. Хуторской. - М.: Изд-во МГУ, 2003.- 416 с.
5. Choriyeva Z.T. “Ona tilini o‘qitish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish” pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiya. – T.: 2023
6. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta‘limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. / Monografiya. - T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013. 76-81 b.
7. Nematillaevna, Z. D. (2021). Problems in providing independent learning education and ways to prevent them. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(1), 1431-1436.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola “Pedagoglarning kasbiy sifatlarini shakllantirishda ta‘limga integratsion yondashuvning ahamiyati” xususida bo‘lib, unda pedagoglarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish va ularni to‘g‘ri shakllantirishda ta‘lim jarayonini integratsiyalashning muhimligi haqida so‘z boradi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье речь идет о значении комплексного подхода к образованию в формировании профессиональных качеств педагогов.

SUMMARY

This article is about the importance of an integrated approach to education in the formation of professional qualities of pedagogues.